



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA AMUDARYO VA SIRDARYO HAVZALARINI HUQUQIY HIMOYA QILISH: XALQARO VA MILLIY ADAPTATSIYA MEKANIZMLARI

Odilova Nazokatxon Shuxratjon qizi

Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: nazokatxonismoilova21@gmail.com

Baxtiyorova Ruxshona

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi va gidrologik inqiroz sharoitida Markaziy Osiyoning asosiy transchegaraviy daryolari – Amudaryo va Sirdaryo havzalarini huquqiy himoya qilish masalalari tadqiq etilgan. Mintaqada sobiq sovet davridan qolgan suv kvotalari tizimining bugungi iqlimiy realliklarga mos kelmasligi huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Xalqaro amaliyotda iqlim o'zgarishiga moslashuvchan (flexible) xalqaro suv shartnomalarini tuzish tajribasi (Janubiy Afrika va AQSh-Meksika modellari) o'rganilgan. O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" va iqlimiy strategiyalarining huquqiy asoslari tahlil qilinib, qurg'oqchilik yillarida transchegaraviy suv taqsimotini avtomatik tartibga soluvchi yangi "Moslashuvchan huquqiy pakt" modelini joriy etish taklif qilingan.

Kalit so'zlar: Iqlim o'zgarishi, Amudaryo, Sirdaryo, huquqiy adaptatsiya, moslashuvchan shartnomalar, suv kvotalari, qurg'oqchilik, yashil iqtisodiyot, transchegaraviy hamkorlik.

Аннотация: В данной статье исследуются вопросы правовой защиты бассейнов основных трансграничных рек Центральной Азии - Амударьи и Сырдарьи - в условиях глобального изменения климата и гидрологического кризиса. Был проведен правовой анализ несоответствия системы водных квот, оставшейся в регионе со времен бывшего Советского Союза, современным климатическим реалиям. В международной практике был изучен опыт заключения международных водных договоров, адаптирующихся к изменению климата (модели ЮАР и США-Мексика). Проанализированы правовые основы "Зеленой экономики" и климатических стратегий Узбекистана, и предложено внедрить новую модель "Гибкого правового пакта," автоматически регулирующую трансграничное распределение воды в засушливые годы.

Ключевые слова: изменение климата, Амударья, Сырдарья, правовая адаптация, гибкие договоры, водные квоты, засуха, зеленая экономика, трансграничное сотрудничество.

Abstract: This article examines the legal protection of the main transboundary rivers of Central Asia – the Amudarya and Syrdarya basins – under the conditions of global climate change and hydrological crisis. The legal incompatibility of the Soviet-era water quota system in the region with current climatic realities is analyzed. The

international practice of establishing climate-flexible international water agreements (South African and US-Mexico models) is explored. The legal frameworks of Uzbekistan's "Green Economy" and climate strategies are analyzed, and a proposal is made to introduce a new "Flexible Legal Pact" model that automatically regulates transboundary water allocation during drought years.

Keywords: Climate change, Amudarya, Syrdarya, legal adaptation, flexible agreements, water quotas, drought, green economy, transboundary cooperation.

Global iqlim o'zgarishi bugungi kunda sayyoramizning ekologik muvozanatiga, ayniqsa, chuchuk suv resurslariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. BMT va Jahon banki prognozlariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasi iqlim o'zgarishi oqibatlariga eng ko'p duchor bo'ladigan hududlardan biridir. So'nggi 50 yilda mintaqadagi asosiy daryolarni suv bilan ta'minlovchi muzliklar maydoni qariyb 30 foizga qisqarganligi ham shundan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoning asosiy transchegaraviy suv arteriyalari bo'lgan Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv oqimining kamayishi va mavsumiy o'zgaruvchanlikning ortishi kuzatilyapti. Bu holat quyi oqimda joylashgan O'zbekiston qishloq xo'jaligi va aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlashda jiddiy xavflarni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda an'anaviy, barqaror iqlim sharoitlariga mo'ljallangan suv taqsimoti tizimlari o'z samaradorligini yo'qotmoqda. Shu bois, Amudaryo va Sirdaryo havzalarini iqlim o'zgarishiga moslashtirish, suv tanqisligi sharoitida davlatlararo munosabatlarni huquqiy jihatdan barqarorlashtirish va "huquqiy adaptatsiya" (legal adaptation) mexanizmlarini yaratish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz strategik vazifasidir.

Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv munosabatlarining hozirgi huquqiy arxitekturasini asosan sobiq ittifoq davridan qolgan meros hisoblanadi. Mintaqa davlatlari mustaqillikka erishgach, 1992-yil 18-fevralda qabul qilingan Olmaota bitimi orqali mavjud gidrologik taqsimotni o'zgarishsiz saqlab qolishga kelishib oldilar. Ushbu bitim bilan Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi (DMXK) tashkil etildi va daryolardan suv olishning yillik limitlari (kvotalari) tasdiqlandi.

Biroq, ushbu huquqiy tizim bugungi kunda "statik" (o'zgarmas) xarakterga ega bo'lib, unda iqlim o'zgarishining dinamik ta'siri mutlaqo nazarda tutilmagan. Birinchidan, amaldagi kvotalar 1980-yillardagi gidrologik ma'lumotlar, ya'ni daryolarda suv serob bo'lgan va muzliklar barqaror bo'lgan davrlar asosida hisoblangan. Bugungi kunda esa Amudaryo va Sirdaryoni to'yintiruvchi Tyanshan va Pomir-Olay muzliklarining erishi keskin tezlashgan bo'lib, yaqin o'n yilliklarda daryolar oqimining 15-20 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda.

Ikkinchidan, 1992-yilgi Olmaota bitimida va undan keyingi mintaqaviy hujjatlarda daryoda suv hajmi keskin kamaygan (qurg'oqchilik) yillarda kvotalarni qanday qilib proporsional tarzda qisqartirishning aniq huquqiy algoritmi va majburiyatlari belgilab berilmagan. Suv kamaygan yillarda yuqori oqim davlatlari o'z gidroenergetik ehtiyojlarini qondirish uchun suv omborlarida suv yig'ishni davom ettirmoqda, bu esa quyi oqimdagi O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida keskin ekologik va iqtisodiy inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Ya'ni, amaldagi huquqiy

mexanizm iqlim inqirozi davrida davlatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish funksiyasini bajara olmayapti va yangi konseptual yondashuvni talab qilmoqda.

Mintaqadagi huquqiy inqirozni bartaraf etish uchun xalqaro ekologik huquqda keng qo'llanilayotgan "Iqlimga moslashuvchan shartnomalar" (Climate-flexible water treaties) konsepsiyasini o'rganish zarur. Bu yondashuv shartnoma normalarining iqlimiy o'zgarishlarga qarab dinamik tarzda moslashishini ta'minlaydi. Global amaliyotda buning ikki xil muvaffaqiyatli huquqiy modeli mavjud bo'lib, ular quyidagicha:

1. Proporsional taqsimot va avtomatik moslashuv: Inkomati daryosi modeli

Janubiy Afrika Respublikasi, Svazilend va Mozambik o'rtasidagi Inkomati daryosi havzasi bitimi qurg'ochilik sharoitida huquqiy muvozanatni saqlashning eng mukammal namunasidir. Ushbu shartnomada qat'iy raqamlar (kub kilometr) emas, balki "foizli ulushlar" tizimi joriy etilgan¹. Eng muhimi, shartnomaga ko'ra daryodagi suv hajmi ma'lum bir kritik darajadan pastga tushganda, barcha a'zo davlatlarning suv olish kvotalari avtomatik ravishda, teng nisbatda kamaytiriladi. Ushbu mexanizm Markaziy Osiyo uchun juda muhim, chunki u Amudaryo va Sirdaryoda suv kamaygan yillarda yuqori va quyi oqim davlatlari o'rtasida uzoq davom etadigan siyosiy bahslarga o'rin qoldirmaydi, tizim avtomatik va huquqiy rejimda ishlaydi.

2. Iqlimiy kreditlar va sug'urta mexanizmi: Kolorado daryosi modeli

AQSh va Meksika o'rtasidagi Kolorado daryosiga oid huquqiy kelishuvlar iqlim o'zgarishiga moslashishning iqtisodiy-huquqiy tomonini ko'rsatib beradi. Ushbu modelga ko'ra, agar biror davlat suv serob yillarda o'z ichki infratuzilmasini modernizatsiya qilib, suvni tejasa, o'sha tejalgan suv hajmi uning "iqlimiy krediti" sifatida maxsus hisobga olinadi². Keyinchalik qurg'ochilik yillari boshlanganda, o'sha davlat o'zining tejalgan suv zaxirasidan qo'shimcha foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Bu mexanizm davlatlarni suvni tejashga huquqiy jihatdan rag'batlantiradi va iqlimiy fors-major holatlaridan o'ziga xos huquqiy sug'urta vazifasini bajaradi.

Xorijiy tajribani implementatsiya qilish jarayoni, birinchi navbatda, davlatning ichki qonunchiligi va strategik hujjatlarida aks etishi lozim. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda bu borada muhim huquqiy qadamlarni qo'ydi. Xususan, O'zbekistonning "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" hamda "Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" doirasida suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligi subyektlari uchun majburiy xarakterga ega bo'la boshladi. Yangi tahrirdagi "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda suv resurslaridan samarali foydalanganlik uchun soliq va kredit imtiyozlari tizimi huquqiy jihatdan mustahkamlandi.

Biroq, bu yerda jiddiy mantiqiy uzilish mavjud: milliy darajadagi huquqiy adaptatsiya choralari o'z-o'zidan transchegaraviy muammoni hal qila olmaydi. O'zbekiston o'z hududida suv isrofini qanchalik kamaytirmasin va tomchilatib sug'orishni joriy etmasin, agar Amudaryo va Sirdaryoning yuqori oqimidan kelayotgan

¹ System Dynamics Modelling of the Water-Energy Nexus in South Africa: A Case of the Inkomati-Usuthu Water Management Area J.G Nanfuka, South African Journal of Industrial Engineering, 2023

² Lucas S Bair, Charles B Yackulic, John C Schmidt, Denielle M Perry, Christine J Kirchhoff, Karletta Chief, Benedict J Colombi, Incorporating social-ecological considerations into basin-wide responses to climate change in the Colorado River Basin, Current Opinion in Environmental Sustainability, Volume 37, 2019, Pages 14-19, ISSN 1877-3435, <https://doi.org/10.1016/j.cosust.2019.04.002>

suv oqimi iqlim o'zgarishi oqibatida nazoratsiz kamayib borsa, milliy strategiyalar kutilgan iqtisodiy va ekologik samarani bermaydi. Shuning uchun, O'zbekistonning ichki "yashil" qonunchiligi mintaqaviy transchegaraviy shartnomalar bilan transmilliy darajada muvofiqlashtirilishi shart. Ichki islohotlar xalqaro suv diplomatiyasi bilan parallel ravishda olib borilgandagina suv xavfsizligining huquqiy kafolati yaratiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi sharoitida Amudaryo va Sirdaryo havzalarini an'anaviy huquqiy usullar bilan himoya qilib bo'lmaydi. Mintaqadagi tinchlik va barqaror rivojlanish bevosita iqlimiy o'zgarishlarni hisobga oluvchi yangi siyosiy-huquqiy mexanizmlarga bog'liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi ilmiy va amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. "Dinamik va proporsional kvota" paktini qabul qilish: 1992-yilgi Olmaota bitimining statik normalaridan voz kechib, Inkomati daryosi tajribasi asosida "Moslashuvchan suv taqsimoti to'g'risidagi yangi mintaqaviy Protokol"ni ishlab chiqish. Unda daryolardagi yillik haqiqiy suv hajmidan kelib chiqib, barcha davlatlarning ulushlari avtomatik ravishda foiz stavkasida qayta hisoblanishi huquqiy norma sifatida mustahkamlanishi lozim.

2. Transchegaraviy "Suv-iqlim loyihalari"ning huquqiy rejimini yaratish: Kolorado daryosi modeli kabi, O'zbekiston qo'shni davlatlar (masalan, Tojikiston yoki Qirg'iziston) hududida gidrologik obyektlarni raqamlashtirish va suv yo'qotishlarini kamaytirish bo'yicha investitsiya kiritishi va buning evaziga tejalgan suvdan xalqaro shartnomalar asosida huquqiy kafolatlangan qo'shimcha ulush olishi mexanizmini joriy etish lozim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. System Dynamics Modelling of the Water-Energy Nexus in South Africa: A Case of the Inkomati-Usuthu Water Management Area J.G Nanfuka, South African Journal of Industrial Engineering, 2023

2. Empirical assessment of effects of urbanization on event flow hydrology in watersheds of Canada's Great Lakes-St Lawrence basin M.P. Trudeau, Murray Richardson

3. Lucas S Bair, Charles B Yackulic, John C Schmidt, Denielle M Perry, Christine J Kirchhoff, Karletta Chief, Benedict J Colombi, Incorporating social-ecological considerations into basin-wide responses to climate change in the Colorado River Basin, Current Opinion in Environmental Sustainability, Volume 37, 2019, Pages 14-19, ISSN 1877-3435, <https://doi.org/10.1016/j.cosust.2019.04.002>

4. Matkarimov, M. (2026). Markaziy Osiyoda transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va adolatli taqsimlashning nazariy-huquqiy asoslari

5. Muzaffar Tangirqulov, (2025), Transchegaraviy suv resurslari: O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi huquqiy muammolar va ularning yechimlari.

6. Abdumalikov, E. (2025). The politics of water diplomacy in Central Asia: Uzbekistan's role in transboundary river cooperation. International Journal of Political Sciences and Economics, 1(3), 192–194.

7. Ravshankulov Firdavs Mashraf ugli. (2025). Security Issues of Transborder Rivers and Major Water Sources of Central Asia. International Journal Of History And Political Sciences, 5(08), 24–27